“O‘zkimyosanoat” AJda kiber-gigiyena asoslari bo‘yicha seminar-trening o‘tkazildi

// 07.06.2023
https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/cyber-hygiene

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, internetning keng miqyosda kirib kelishi, biznes va texnologik jarayonlarni yanada avtomatlashtirish bilan birgalikda axborot xavfsizligi va kiber-gigiyenaga amal qilish talablari tobora oshib bormoqda.

Jamiyat va tizim korxonalari xodimlari kiber-savodxonligini oshirish maqsadida “O‘zkimyosanoat” AJda kiber-gigiyena bo‘yicha seminar-trening tashkil qilindi.

Seminar davomida kiber-gigiyena va axborot xavfsizligi, ko‘p faktorli autentifikatsiya, kompyuter funksiyalarini cheklash, fishing, kiber-firibgarlarning ma’lumotlar manbai, messendjer va elektron pochtalarda xabar almashish xavflari, ish faoliyati va shaxsiy hayot muhitini chegaralash, xabar almashish kanallari, messendjer va ijtimoiy tarmoqlarda axborot xavfsizligi; elektron imzo kalitini yo‘qotish, saqlash vositalari bilan xavfsiz ishlash, xavfli dasturiy ta’minotlarning kompyuterlarga tushish yo‘llari, ishni boshlashdan oldin kompyuterni tekshirish, kompyuter ishlamay qolganda blokirovka qilish/tizimdan chiqish, kundalik hayotda kiberxavfsizlik, telefon apparati yo‘qolgandagi choralar, axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar va boshqa masalalar muhokama qilindi.